



БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача) мавзусидаги



РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ

МАТБРИААААРИ

Бухоро-2024

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

МАТЕРИАЛЛАРИ

•
иғ

2024 йил 10 май

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

Бухоро - 2024

<https://buxdu.uz>

Республика миѳсидаги илмий-амалий конференция

7. Шарофутдинов С. Бухоро илгорлари. -Тошкент: Узбекистон, 1968. -Б. 106.

8. Бухоро вилоят давлат архиви 1196-фонд, 1-руйхат, 123-йигма жилд, 45-варак;.

BUXORO TO'QIMACHILIK FABRIKASIDA KUTUBXONA, SPORT TO'G'ARAKLARI FAOLİYATI**Utayeva Feruza Xolmamatovna Buxoro Davlat Universiteti dotsenti,t.f.f.d.(PhD)**

Buxoro shahrida va tumanlarida to'qimachilik sanoatining tashkil etilishi natijasida ko'plab oilalar ish bilan ta'minlanishiga ehtiyoj yuzaga kelgan. Buxoro ip-yigiruv kombinatida 1975 yil 14 iyul holatiga ko'ra ishchilar soni 3497 kishi, shundan 2051 nafari komsomol a'zosi, 1055 nafari ayollarni tashkil qilgan. Buxoro ip-yigiruv kombinatida 1975 yil 17 iyul direktor Ahmedov G'ulom Ahedovich partiya va komsomol tashkilotchilariga korxonada ishchilarini ishdan tashqari vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun ma'naviy tadbirlarni o'tkazilishi rejalashtilgan. Tadbirlarni o'tkazish uchun ma'sul shaxslar belgilangan. Ma'naviy tadbirlarni o'tkazish partiya tashkilotchisi S.N. Negmatova komsomol tashkilotchisi M. Maxmudova, kombinat bo'lim raisi B.T. Tsoriyev To'qimachilik ishlab chiqarish sohasi bo'yicha qo'mitasiga K.V. Lazarevalarga ma'suliyatli vazifalar yuklatilgan.

Buxoro ip-yigiruv kombinatida sexlar o'rtasida 60 dan ortiq kishi turli sport turlari bo'yicha sport toifalariga ega bo'lgan. 1974 yilda sport va jismoniy tarbiya ishlari bo'yicha fabrikalar o'rtasida eng yaxshi ko'rsatgichga ega bo'lgan. Buxoro shahrida o'tkazilgan bellashuvda 1974 yil kombinat 6-o'rinni egallagan.

Sexlar o'rtasida musobaqalar tashkil etilgan. Lekin ahamiyatlisi shundaki kombinatda sport sohalari bo'yicha yetarli sharoitlar mavjud bo'lmagan. Sababi, qurilish ishlari faqat ishlab chiqarish sohasiga qaratilgan. 1976 yilda kombinatda sport inshootlari yaroqsiz holatda bo'lgan. 2 ta voleybol maydonchasidan tashqari, sport inshootlarini qurish 1976 yilga mo'ljallangan.

Birinchi yigiruv-to'quv fabrikasi tomonidan sport sog'lomlashtirish sohasi bo'yicha rejalar tuzilgan bo'lib, bu rejalar Buxoro ip-gazlama kombinatining ish sur'atlarini oshirishga ijobiy ta'sir etgan. Jumladan, 1975 yil korxonada ishchilarini kutubxonaning bo'limlariga obuna qilish va tadbirlar o'tkazish rejalashtirilgan va o'tkazilgan. Jumladan:

- V.I.Leninning tug'ilgan kuni - 1975 yil 22 aprel
- N.A.Moloxovning adabiy kechasi - 1975 yil 17 iyul
- Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni 1975 yil 31 iyul
- 1975-yil 5-dekabr Konstitutsiya qabul qilingan kunga bag'ishlangan tadbir
- O'zSSR tashkil etilganligining 51 yilligi 1975 yil 27 oktyabrda bo'lib o'tgan. Reja kombinat kutubxonasida tuzilgan. 1976 yildagi ommaviy sport tadbirlarining kalendar rejasida keltirilishicha, 1976 yil kutubxonada kitob o'qigan ishchilar soni 102 ta, xodimlar 66 ta, talabalar 141 tani tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ishchilar, masterlar, talabalar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga harakat qilingan. Talabalar ishdan ajlalmagan holda kasb-hunar bilim yurti va Texnika oliy o'quv yurtida sirtidan va kechki ta'lim olishgan.

Buxoro ip-yigiruv kombinati direktori U.U. Umarbekov tomonidan ishchilarga qulayliklar yaratish maqsadida 1974 yil 21 fevralda Yengil sanoat vazirligiga kombinat ishchilarini avtobus bilan ta'minlash uchun buyurtma berilgan. Buyurtma asosida O'zbekiston SSR Avtomobil transporti vazirligining Buxoro viloyat ijroiya qo'mitasi ertalab va kechki navbatlarda ishchilarni fabrikaga uzluksiz yetkazib berishni tashkil etadi, shuningdek, shahar va fabrika o'rtasida doimiy avtobus qatnovi ta'minlangan.

Nafaqat ish balki ishchilarning sog'ligi ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ish unumdorligini oshirish uchun O'zSSR Savdo vazirligi va Buxoro viloyat qo'mitasi tomonidan quyidagilar belgilab o'tilgan:

- to'qimachilik kombinati ishchilarining savdo dukonlarini va yotoqxonalarini qurib ishga tushirish. O'zSSR Maorif vazirligi va Buxoro viloyat qo'mitasiga qurilishi tugallangan

Бухоро тарихи масалалари (энг кадимги замонлардан хозиргача)

yotoqxonani bir yil muddatga kombinatga o'tkazishni topshirdi; yotoqxonada sartaroshlar, poyabzal, kiyim-kechak, soat ta'mirlash ustaxonalari, kimyoviy tozalash va dorixonalarni tashkil etish;

- fabrikada Buxoro viloyat qo'mitasi tomonidan pochta va matbaa bo'limi tashkil etilishi, telefon markazini loyihasi, kombinat ishchilari va ularning oila a'zolariga yaxshi tibbiy yordam ko'rsatish uchun 3 oylik muddatda tibbiy joylarni tayyorlashni tezlashtirish choralari ko'rildi.

1974 yil 1 sentabr, 1974-1975-yillarda loyihalashtirilgan yozgi va qishki kenoteatrlar qurish uchun loyiha hujjatlari tayyorlandi. 1975 yil to'qimachilik hududida 300 o'rinli qurilish uchun kapital investitsiyalar ajratildi. Buxoro trolleybus deposi 50 ta vagon va trolleybus liniyalari va O'zbekiston SSR Davlat plan komissiyasining 1976 yilgi rejasi boshlandi: Kombinats ishchilari uchun kombinatning zaxirasidan kombinat yotoqxonasi uchun 10 ming so'mlik mebel bilan ta'minlandi, qurilish-montaj ishlari uchun 0,8 million so'm 1974 yilda fabrika hududida maktab o'quvchilar uchun 1104 o'rinli maktab qurish uchun 64 million so'm mablag' ajratilgan.

O'zbekiston SSR Maorif vazirligi Buxoro viloyat qo'mitasi va shahar ijroiya qo'mitasi tomonidan yoshlar, ayniqsa, maktab bitiruvchilar o'rtasida, ishlab chiqarish va viloyatda ularni doimiy ishga jalb etish maqsadida keng tushuntirish ishlari olib borilgan.

Dastlabki yillarda to'qimachilik sanoatini zamonaviy ilmiy-texnik asosda rivojlantirishga qodir 1000 ga yaqin muhandis-texnik xodimlar mehnat qilishgan. Yillar davomida ishchilar soni o'sib borgan, ishchilarning darajasi ko'tarilib, malakasi oshirildi, mehnat va siyosiy faolligi, tashabbuskorligi va ijodkorligi ko'paydi. Bu yerda o'zbeklar, ruslar, ukrainlar, tatarlar, turkmanlar, armanlar, qozoqlar koreyslar, tojiklar va ozarbayjonlar mehnat qilganlar.

To'qimachilik kombinati o'zining ish faoliyatini va ma'naviy tadbirlarini yoritib boradigan matbuotiga ega bo'lgan. 1978 yil 10 iyunda "Buxoro to'qimachisi" gazetasining birinchi soni 1,5 ming nusxada nashr etilgan. Gazetada fabrika ishchilari yigiruvchilari, to'quvchilari, chilangarlari, hunarmandlari, ijodkor yoshlar va boshqalar o'z fikrlari bilan doim faol qatnashgan. Gazeta tahririyati bilan ijodiy aloqalar olib borilgan. Viloyat va respublikadagi to'qimachilik sohalaridagi yutuq va kamchiliklar bayon etilgan. Fabrika va jamoat tashkilotlari rahbarlarining ko'plab rasmiy materiallari va chiqishlari ko'p tirajli gazeta sahifalarida bosilgan. 1978-1985-yillarda asosiy e'tibor ishchilar, tashabbuslar tashabbuskorlar, sotsialistik musobaqalar, ishlab chiqarishda xom-ashyoni tejash, mehnat intizomini mustahkamlash, sifatli mahsulot olish harakati uchun kurashga bag'ishlangan.

Tashabbuskorlik musobaqalari tashkil etilgan bo'lib, 1974-yilda kombinat ishchilarining 39 foizi qatnashgan bo'lsa, 1975-yilda 50 foizdan ortig'i kommunistik mehnat brigadalari harakati keng rivojlanib, unda 820 nafar ishchi qatnashdi. 1978-yil yanvar oyida tashabbuskorlik musobaqalari korxonada samaradorligini oshirishga yordam bergan.

700 dan ortiq yosh ishchi va mutaxassislar komsomol ta'limi to'garaklarida, oliy o'quv yurtlari, texnikumlar, ishchi yoshlar maktablarda o'z g'oyaviy-siyosiy saviyasini yuksaltirish uchun safarbar etilgan. 1975-yil to'qimachilik shaharchasida 300 o'rinli yozgi va qishki kinoteatr qurilishi uchun loyihani tayyorlash; Davlat plan komissiyasi tomonidan 50 ta vagon va traileybus liniyalarini tashkil qilish 1976 yil ishga tushirish. To'qimachilik shaharchasidagi yotoqxonasi uchun 10 ming so'm mablag' ajratildi; 1979 yil 1104 o'quvchi uchun mo'ljallangan maktab uchun 64 mln so'm ajratilgan.

Ish boshlagan 1970-1973-yillarda bor-yo'g'i 230 nafar muhandis-texnik xodimlar, shu jumladan atigi 83 nafari oliy ma'lumotli ishchilar ishlagan bo'lsa, 1980-yilga kelib korxonada 450 nafar oliy ma'lumotli, shu jumladan, 235 nafari oliy maxsus ma'lumotli mutaxassislar ishlagan. 700 dan ortiq oliy ma'lumotli muhandis-texnik xodimlar, ularning deyarli 80 foizi oliy maxsus ma'lumotga ega bo'lgan. Xodimlarning har tomonlama kamol topishi uchun tinimsiz g'amxo'rlik ko'rsatilib, barcha sharoit yaratilgan. Madaniy hordiq chiqarish uchun 1986-yilda bu yerda "Bahor" xalq teatri ishlagan, unga S. Ayniy nomidagi viloyat musiqali drama teatri aktyori F. Abdullaev rabarlik qilgan. "Tong" vokal-cholg'u ansambli, "Go'zal" xalq ansambli faoliyat

Республика мицёсидаги илмий-амалий конференция

ko'rsatgan. 30 dan ortiq kishini madaniyat texnikumi o'qituvchisi A.Gelfand boshqargan havaskor kinostudiyaga birlashtirdilar.

1983 yil kombinat bosh muhandisi E. Sokolov va Z. Hamidov 1982-yil uchun Buxoro to'qimachilik kombinati uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha harajatlarni hisob qilishdi: 710 kishiga yangi ishchilarni tayyorlash, texnikum talabalariga stipendiyalarni to'lash oliy o'quv yurti talabalaridan 40 kishiga stependiya to'lash rejalashtirilgan. Har chorakda 10 kishiga 1 yilda 4 ta chorakda 40 kishiga stependiya to'lab berilgan.

Komsomol tashkilotlarida 1200 nafar talaba bo'lib, har bir talaba rejadan tashqari jamg'armalar fondini yaratishda faol ishtirok etdilar. Moskvada bo'ladigan butunjahon yoshlar va talabalar festivalini munosib kutib olishga qaror qilingan. Ushbu muhim voqea munosabati bilan kombinat yoshlari ikki marta ommaviy shanbalik o'tkazib, festival fondiga 20 ming rubldan ortiq mablag' o'tkazdilar.

Xulosa qilib aytganda, Buxorodagi ip-yigiruv fabrikasida ish faoliyati va ishdan bo'sh vaqtlarida dam olishlari uchun yaratilgan shart sharoitlar sport to'garaklari, tadbirlar, haftaliklar, konstitutsiya bayrami, taniqli shaxslarga bag'ishlangan kechalar, kutubxonalar, yozgi va qishki kinoteatrlar tashkil etilgan.

Mavzu yuzasidan tavsiyalar Buxoroda to'qimachilik salohiyatini oshirish uchun klaster tizimining yo'lga qo'yilishida muammo va yechimlar mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumanini o'tkazish, O'zbekiston va Markaziy Osiyoda to'qimachilik sanoati tarixiga oid ma'lumotlarning veb-saytini yaratish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Курбонова, Д. Н. (2024). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ GOOGLE DOCS И РЕДАКТИРОВАНИЯ ФАЙЛОВ В СРЕДЕ GOOGLE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 44(4), 108-113.
2. Soliyevna, S. S. (2024). SO'G'D KONFEDERATSIYASINING SHAKLLANISH JARAYONI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 174-180.
3. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197..
4. Axmatovna, J. N. (2024). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER-SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN'ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 181-188..
5. Utayeva, F. (2023). TO'QIMACHILIK FABRIKASIDA AHOLINING ISH BILAN TA'MINLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
6. F Utayeva [BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATI](#) ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 2023
7. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49.

8. F. Utayeva, B. Safarov ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА

Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023

9. Utayeva, F. (2023). BUXORO TO'QIMACHILIK KOMBINATINI MALAKALI MUTAXASISLAR BILAN TA'MINLASH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
10. Utayeva, F. (2023). BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
11. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 303-307.
12. Utayeva, F., Sharipova, P., & G'ayratjon qizi Rahmatova, R. F. (2023). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO TO'QIMACHILIK SANOATIDA MODERNIZATSİYALASHUV JARAYONLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (6), 61-61.
13. Kholmamatovna, U. F. (2022). Bukhara Yarn and Fabric Factory (1970-1985). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(6), 160-164.
14. Utayeva, F. (2022). Utayeva FX MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 18(18).
15. Utayeva, F. (2022). Utayeva FX BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 18(18).
16. Utayeva, F. (2021). BUXORO TARIXINI O'RGANISHDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLARNI O'RNI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 7(7).
17. Utayeva, F. (2021). Activities and Financial Status of Bukhara Mangit Rulers in The Years Of Independence. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 7(7).
18. Utayeva, F. (2021). TARIX DARSLARIDA MUTAFAKKIRLARNING MA'NAVIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 6(6).
19. Utayeva, F. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ИЛМИЙ ТАРИХИЙ МАТБУОТДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 6(6).
20. Utayeva, F. (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 8(8).
21. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197.
22. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 133.
2. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1236 fond, 1-ro'yxat, 121- yig'ma jild, 44- varaq
3. Сааков В. В Сотни адресов (История Бухарского текстильного комбината) -Ташкент: Мех,нат, 1991. - С. 45.
4. Исмоилова Г. Узбекистонда хотин-киз ишчи кадрлар тайёрлаш. - Тошкент: Узбекистон,

1983. - Б. 22.

5. Бухарское городское училище №100 // Текстильщик Бухары, 9 июня 1979 года.

Узбекистон тукумачилик саноатининг ривожланиши. - Тошкент: Узбекистон, 1983. - Б. 15.

7. O‘zbekiston milliy arxivi, P - 2792 - fond, 1 - ro‘yxat, 108 - yig‘ma jild, 124 - varaq.